

MUZEY EKSPOZITSIYASI: NAZARIY ASOSLARI VA TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI



Sayfullayeva Yulduzxon Yashinovna

Tayanch doktorant 1kurs

Kamoliddin Behzod nomidagi

Milliy rassomlik va dizayn instituti

+ 998 97 404 65 47

yulduzkhon911@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada muzey ekspozitsiyasi tushunchasi, uning nazariy asoslari hamda tarixiy shakllanish bosqichlari tahlil qilinadi. Ekspozitsiyaning shakllanishida muzeysunoslik fanining rivojlanishi, ijtimoiy-madaniy omillar va texnologik yutuqlarning oʻrni koʻrsatilgan. Shuningdek, zamonaviy ekspozitsiyalarni tashkil etishda qoʻllanilayotgan yondashuvlar va tendensiyalar haqida fikr yuritiladi.

Kalit soʻzlar: muzey, ekspozitsiya, muzeysunoslik, tarix, madaniyat, nazariya, rivojlanish.

Аннотация: В статье рассматриваются понятие музейной экспозиции, её теоретические основы и исторические этапы формирования. Подчёркивается роль развития музееведения, социально-культурных факторов и технологических достижений в формировании экспозиций. Также освещаются современные подходы и тенденции в организации музейных экспозиций.

Ключевые слова: музей, экспозиция, музееведение, история, культура, теория, развитие.

Abstract: This article explores the concept of museum exhibition, its theoretical foundations, and historical stages of development. It highlights the role of museology, socio-cultural factors, and technological advancements in the evolution of exhibitions. The paper also discusses modern approaches and trends in organizing museum exhibitions.

Keywords: museum, exhibition, museology, history, culture, theory, development.

Ekspozitsiya - muzey faoliyatining asosiy yoʻnalishlaridan biri boʻlib, muzey kommunikatsiyasining asosini tashkil qiladi. Muzey ekspozitsiyasi muzey ashyolarini yagona kontseptual gʻoya asosida birlashtiradi. Ekspozitsiya uchun muzey ashyolarini tanlash mezonini muzey toʻplamining kommunikativ xususiyatlariga, muzey ashyosining informativlik, ekspressivlik, attraktivligiga katta eʼtibor qilinadi.

Muzey ekspozitsiyasi insoniyatning moddiy va maʼnaviy meʼrosini ommaga taqdim etishning muhim shakli sifatida uzoq taraqqiyot yoʻlini bosib oʻtgan. Ekspozitsiya – bu nafaqat eksponatlarning oddiy koʻrgazmasi, balki muayyan ilmiy, estetik, pedagogik va kommunikativ konsepsiyaga asoslangan tizimli namoyishdir. uning evolyutsiyasi jamiyat taraqqiyoti, fan-texnika yutuqlari va madaniy ehtiyojlar bilan chambarchas bogʻliq xolda rivojlanib kelmoqda.

“Ekspozitsiya” termini lotincha *exposition* (namoyish qilish, tushuntirish) soʻzidan olingan boʻlib, dastlab fransuz tilida “exposition” shaklida sanʼat asarlarini ommaga taqdim etish maʼnosida qoʻllanilgan[1].

“Muzey ekspozitsiyasi” - bu muzey kolleksiyasidagi predmetlar orqali muayyan mavzuni ilmiy, badiiy va pedagogik mezonlar asosida ochib beruvchi, tomoshabinda axborot va estetik taassurot uygʻotishga qaratilgan murakkab tizimdir. “Muzey ekspozitsiyasi” atamasi esa XIX asr oxiri – XX asr boshlarida muzeylar faoliyati takomillasha boshlagach, fanga ilmiy termin sifatida kirib kelgan. Shu davrda ekspozitsiyalar buyumlarni faqat saqlash emas, balki ommaga tizimli, pedagogik va estetik tarzda taqdim etish vositasi sifatida shakllandi[2].

Ayniqsa, Rossiya muzeyshunosligida bu atama keng muomalaga kirgan bo'lib, G. V. Kozlov o'zining “Экспозиционная деятельность музея” (2003) asarida ekspozitsiya tushunchasini muzeyning asosiy faoliyat yo'nalishlaridan biri sifatida tavsiflaydi. Muallif ekspozitsiyani ilmiy, estetik va kommunikativ maqsadga xizmat qiluvchi tizim sifatida izohlagan[3].

Umuman olganda muzey ekspozitsiyasining tub ildizlari qadimgi Yunoniston va Misrga borib taqaladi. O'sha davrdagi Aleksandriya kutubxonasi, ilmiy markazlar hisoblangan *Museion*, insoniyat bilimlarini jamlash va ularni saqlash maqsadida tashkil etilgan. Bu joylar o'sha davrning eng muhim ilmiy va madaniy markazlari bo'lib, ekspozitsiya tushunchasining dastlabki shakllarini ifodalagan[4].

Dastlabki ekspozitsiya shakllari “cabinet”, “nodir buyumlar kabineti” ko'rinishida tashkil etilgan bo'lib, ular aristokratlar yoki olimlarning shaxsiy kolleksiyalarini o'z ichiga olgan. Bu davrda ekspozitsiyaning asosiy maqsadi buyumlarni jamlash va namoyish qilish bo'lib, ular orasidagi aloqadorlik, mavzuli birlik deyarli mavjud emasdi[5].

Renessans davrida san'at va ilm fanga bo'lgan qiziqish ortib boradi va buning natijasida xususiy kolleksiyalar kengaya boshlaydi. Bu jarayon natijasida ularni ommaga ko'rsatish g'oyasi paydi bo'ladi. Bu davrda ekspozitsiyalar asosan san'at asarlarini tartibga solib ko'rsatishga yo'naltirilgan edi.

Fransuz inqilobi va sanoat inqilobi natijasida muzeylar ommaga ochiladi. Luvr muzeyi 1973 yilda ommaga ochilishi bilan, ekspozitsiyalar ilmiy-tarbiyaviy maqsadlarda tashkil etila boshlandi. 1851 yilda Londonda bo'lib o'tgan “Buyuk ko'rgazma” (Great Exhibition) esa zamonaviy dizayn va ommaviy ko'rgazmalar tarixida muhim burilish nuqtasi bo'ldi. Buyuk ko'rgazma rasmiy nomi bilan “The Great Exhibition of the Works of Industry of All Nations – sanoat, madaniyat va texnologiya yutuqlarini namoyish etgan birinchi xalqaro ko'rgazma hisoblanadi.

Ko'rgazma davomiyligi 1851-yil 1-maydan – 15 oktyabrgacha bo'lgan, unda jami mehmonlar soni 6 milliondan ortiq, eksponatlar soni 100,000 dan ortiq, ishtrokchi mamlakatlar 48 davlatni tashkil qilgan. Ko'rgazmada turli mamlakatdan keltirilgan sanoat mahsulotlari, texnologik yangiliklar va madaniy artefaktlar namoyish etilgan. Mashhur eksponatlar orasida Hindistondan olib kelingan Koh-i-Noor olmosi, bug' mashinalari, to'qimachilik mahsulotlari, va boshqa ko'plab noyob san'at asarlari bo'lgan[6].

XX asrda ekspozitsiyalar interaktiv va tematik yondashuvlarga ega bo'lib, tomoshabinlarning ishtrokini oshirishga qaratildi. Muzeylar nafaqat eksponatlarni nomiyish etish, balki ularni tushunishga yordam beruvchi matnlar, multimedia vositalari va interaktiv elementlar bilan boyitildi.

XXI asr raqamli texnologiyalar asri ekanligini hisobga olganda, zamonaviy muzey ekspozitsiyalari virtual haqiqat (VR), kengaytirilgan haqiqat (AR) va boshqa innovatsion vositalar orqali boyitilmoqda. Bu kabi yondashuvlar o'z navbatida tomoshabinlarda muzey ekspozitsiyalariga bo'lgan qiziqishni orttirmoqda va ularni faol ishtrokchiga aylantirmoqda. Shu bilan birgalikda, ekspozitsiya yaratishda jamoatchilikning fikr va takliflari ham inobatga olinmoqda.

Muzey ekspozitsiyasi tomoshabin va muzey o'rtasidagi asosiy kommunikatsiya vositasi hisoblangani uchun, bu sohani jahon bo'ylab o'rganish ancha ilg'or. Xorij adabiyorlariga yuzlanadigan bo'lsak, John H. Falk va Lynn D. Dierkingning “Muzeum Experience” kitobida muzey tashrifchilari tajribasini tahlil qiluvchi “Kontekstual o'rganish modeli”ni taklif qiladi.

Shamsidar Ahmad, Mohamed Yusoff Abbas, Mohd. Zafrullah Mohd. Taib, Mashar Masrilarning “Muzey ekspozitsiyasi dizayni: bilimning shakllanishi va muloqot vositasi sifatidagi rolining ahamiyati” nomli ilmiy maqolasida mualliflar ekspozitsiya dizayni orqali tashrifchilarga qanday ta'sir ko'rsatilishini tahlil qiladilar.

William R. Shafferning “Muzey ekspozitsiyasi dizayni va tashrifchilar tajribasining evolyutsiyasi” dissertatsiyasida 1924 yildan 2016 yilgacha bo'lgan davrda muzey ekspozitsiyasi dizayni va tashrifchilar tajribasining evolyutsiyasini o'rganadi. Muallif ekspozitsiya dizaynining tashrifchilar oqimiga qanday ta'sir qilishini tahlil qiladi.

Rossiya muzeyshunosligida ekspozitsiyani qurish jarayoni nazariyasi N. I. Romanov, V. M. Farmakovskiy, F. I. Shmita, N. M. Drujinin, A. I. Mixaylovskaya, T. P. Polyakov, E. A. Rosenblum

nomlari bilan chambarchas bog'liq[7].

Muzeyda ekspozitsiya faoliyati bilan bog'liq izlanishlar sovet tadqiqotchilari tomonidan ham faol o'rganilgan. Eng yirik tadqiqotchilardan F. I. Shmitning "Muzey ekspozitsiyasi" M. 1929., A. I. Mixaylovskayaning "Muzey ekspozitsiyasi" M., Kliksa. Rning "Ekspozitsiyani badiiy loyihalash" M. 1978., T.P. Polyakovning Muzeyni qanday qilish kerak? (Muzey ekspozitsiyasini loyihalash usullari to'g'risida M., 1997), M. T. Maystrovkoyning "Muzey ekspozitsiyasi. San'at – Arxitektura – Dizayn" M. 2000., kitoblari ushbu sohada yetakchi hisoblanadi, ammo ekspozitsiya klassifikatsiyasi muammolari yaxshi yoritilmagan[8].

Bugungi kunda ekspozitsiyalar jamiyatdagi dolzarb masalalarni yoritish, tarixiy xotirani saqlash, identitetni shakllantirish hamda ijtimoiy muloqotni kuchaytirish vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Shuningdek, zamonaviy ekspozitsiya kuratorlik yondashuvi asosida ishlab chiqilmoqda, bu esa ekspozitsiya yaratishda subyektivlik, ijodkorlik va yangi qarashlarni taqozo etadi.

Foydalangan adabiyot ro'yxati:

1. Evromuseography.wordpress.com – "Expozition: its meaning and use in museum contex" (2015).
2. Столяров Б. А., Музейное дело: теория и практика. – М.: Академия, 2010. – С. 114.
3. Козлов Г. В. Экспозиционная деятельность музея. – М.:2003. - С. 89.
4. Hernández, Sachie. The Museum evolution and its adaptation [ELECTRON RESOURCE] //Culture & development, 8: Museums and heritage.-2012. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000219924_eng.
5. Hernández, Sachie. The Museum evolution and its adaptation [ELECTRON RESOURCE] //Culture & development, 8: Museums and heritage. -2012. - https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000219924_eng.
6. John R. Davis. The Great Exhibition. - Sutton Pub Ltd, 2000. – P. 85-90.
7. Андреева И. В. 2019. Метод музейно-экспозиционного проектирования как основание классификации музейных экспозиций. Вопросы музеологии, 10 (1), 16–28. <https://doi.org/10.21638/11701/spbu27.2019.102>. – С. 16.
8. Н. В. Корникова. Проектирование музейной экспозиции. Учебно-методический комплекс по учебной дисциплине. – М.: 2020. – С. 5.